

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODELI 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI" TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Orcid: <https://orcid.org/0009-0008-6454-971X>

E-mail: masumazokirova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarida kritik fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli fanlar o'rtasida bog'liqlikni anglash kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada integrativ yondashuvning metodik asoslari va amaliy qo'llash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kritik fikrlash, integrativ yondashuv, boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi.

IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY STUDENTS

Zakirova Masuma Kahramonjon kizi

Turan International University

Teacher, Department of Humanities and Pedagogy

Annotation. this article examines the importance of an integrative approach in developing critical thinking skills among primary school students. Integrated learning helps students develop independent thinking, analyze problem situations, and understand interdisciplinary connections. The article also highlights the methodological foundations of the integrative approach and its practical applications in the educational process.

Keywords: critical thinking, integrative approach, primary education, interdisciplinary integration, independent thinking, pedagogical technologies, learning effectiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n10>

Ta'lim jarayonida nafaqat o'quvchilarning bilim olishiga, balki ularni mustaqil fikrlay olishi, tahlil qila olishi, muammolarni hal qila olish ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari maqsadga muvofiq. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda esa pedagoglar innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishlari kerak. Bu o'rinda integrativ yondashuv asosida dars tashkil etish maqsadga muvofiq. Zamonaviy ta'lim jarayonida umumta'lim matablarida aynan o'quvchilarni "4K" modeli asosida o'qitish asosiy maqsadlardan biridir. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi qarorida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari, kritik fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Hozirgi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarimoqda. Endilikda o'quvchilardan faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish emas, balki mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash, muammolarni hal etish va innovatsion

yondashuv asosida qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortib borayotgani o'quvchilardan nafaqat bilimlarni qabul qilishni, balki ularni saralash, tahlil qilish va baholashni ham talab etmoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar orqali yetib kelayotgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash, ularning mazmunini anglash va ularga nisbatan mustaqil munosabat bildirish qobiliyati har bir shaxs uchun zarur kompetensiyaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kritik fikrlash nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikma sifatida e'tirof etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol idrok qilish, qiziqish va izlanishga moyillik bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda ularning fikrlash faoliyati intensiv rivojlanadi, savol berish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy jarayonlar shakllanadi. Agar bu jarayon to'g'ri pedagogik yondashuv asosida yo'naltirilsa, o'quvchilarda chuqur va mustahkam fikrlash ko'nikmalari vujudga keladi. Aks holda esa, ular tayyor javoblarga tayanib qoluvchi, passiv bilim oluvchilarga aylanishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy pedagogika boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning faolligini oshiruvchi, ularni mustaqil izlanishga undovchi metodlarni qo'llashni talab etadi. Bunda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, fasilitator va hamkor sifatida faoliyat yuritishi muhimdir. O'quvchilarni o'ylashga, savol berishga, fikrini erkin ifoda etishga undaydigan ta'lim muhiti kritik fikrlashni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda integrativ yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki integratsiya ta'lim mazmunini yaxlit tizim sifatida tashkil etib, o'quvchilarda chuqur va barqaror bilimlarni shakllantirishga yordam beradi. An'anaviy ta'limda fanlar ko'pincha alohida-alohida o'rganiladi, bu esa o'quvchilarda bilimlarning uzviy bog'liqligini anglashni qiyinlashtiradi. Integrativ yondashuv esa turli fanlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ochib berib, bilimlarni yagona tizim sifatida idrok etishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilar bir mavzuni turli fanlar kesimida o'rganish orqali uni har tomonlama angelaydilar. Bu esa ularning fikrlash doirasini kengaytiradi, turli nuqtai nazarlarni solishtirishga o'rgatadi va chuqur tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Masalan, biror tabiiy hodisani o'rganishda o'quvchi nafaqat uning ilmiy asoslarini, balki u bilan bog'liq matematik hisob-kitoblarni, til orqali ifodalash imkoniyatlarini va san'at orqali tasvirlash yo'llarini ham o'zlashtiradi. Bu esa bilimlarning mustahkamligi va amaliy ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, integrativ yondashuv o'quvchilarda sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kompleks qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Aynan shu jihatlar kritik fikrlashning asosiy komponentlari hisoblanadi. Integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, uni izlanishga, savol berishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Shuningdek, integrativ yondashuv o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Guruhli ishlash, muhokama qilish, o'z fikrini asoslab berish va boshqalarning fikrini tinglash jarayonida ular ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, integrativ yondashuv boshlang'ich ta'limda kritik fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularni amaliyot bilan bog'lash va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida

shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida integratsiyalashgan yondashuvni keng joriy etish va uni metodik jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda kritik fikrlash, turli jarayonlarni baholash, qarorlar qabul qilish va muammolarga maqbul yechim topish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham integratsion yondashuv muhim hisoblanadi. Bugungi kunda kritik fikrlashni rivojlantirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Kritik fikrlashni rivojlantirish bo'yicha dunyoda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kritik fikrlashni bir nechta muammolarni hal qilish usuli, ya'ni ma'lum bir argumentlarni o'rganish, ularga maqbul yechimlarni izlash va tahlil qilish sifatida qaraladi.

Kritik fikrlash: Axborotni tanqidiy baholash, o'z fikr va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Kritik fikrlash ma'lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyati to'g'ri va mantiqiy xulosa chiqarish va oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Jamoa bo'lib hamkorlikda ishlaganda tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar ijtimoiy muloqotga kirisha oladilar. U quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi: tahlil - muhokama qilinadigan savol va dalillar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni o'rnatish; baholash - dalillarning ishonchligi va aniqligini baholash qobiliyati; tushuntirish - o'z nuqtai nazarini asoslash; faraz qilish - ma'lumotlarning yetishmasligini aniqlash va shu asosda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati; tartibga solish - o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni chiqarish va mulohaza yuritish qobiliyati shakllanadi.

Kritik fikrlash - bu shaxsning axborotni ongli ravishda qabul qilish, uni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish, dalillarni baholash hamda asosli va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatidir. U nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni anglash, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan kritik fikrlash zamonaviy ta'limning eng muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Kritik fikrlashning asosiy maqsadi - o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, o'z nuqtayi nazarini shakllantirish va uni dalillar asosida himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu jarayonda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi, tahlilchi va tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladilar. Natijada ular muammoli vaziyatlarni chuqurroq anglaydi, turli yechim variantlarini ko'rib chiqadi va eng maqbul qarorni tanlashga o'rganadi. Kritik fikrlash axborotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhlash qobiliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga ma'lumotlarning to'g'riligi, ishonchligi va dolzarbligini aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, bugungi axborot oqimi kuchaygan davrda bu ko'nikma o'quvchilarning noto'g'ri yoki asossiz ma'lumotlardan himoyalanihida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kritik fikrlash o'quvchilarga mantiqiy va asosli xulosa chiqarish hamda oqilona qaror qabul qilishda yordam beradi. Kritik fikrlashning yana bir muhim jihati - uning ijtimoiy xarakterga egaligidir. Jamoa bo'lib ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, boshqalarning fikrlarini tinglaydi va muhokama qiladi. Bu esa ularda muloqot madaniyatini, bag'rikenglikni va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilar nafaqat individual, balki ijtimoiy jihatdan ham yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Kritik fikrlash bir nechta muhim komponentlarni o'z ichiga oladi: Tahlil (analiz) - bu muhokama qilinayotgan masala, savol yoki muammoni tarkibiy qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash jarayonidir. Tahlil orqali o'quvchilar muammoning mohiyatini chuqur anglaydi va uning asosiy sabablarini aniqlashga harakat qiladi. Baholash

(evaluatsiya) – bu mavjud dalillar, ma'lumotlar va fikrlarning ishonchligi, aniqligi va asoslanganligini tekshirish qobiliyatidir. O'quvchilar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirib, ularning qanchalik ishonchli ekanini aniqlashga o'rganadilar. Tushuntirish (izohlash) – bu o'z nuqtayi nazarini aniq va asosli tarzda ifodalash, dalillar bilan mustahkamlash jarayonidir. Bu ko'nikma o'quvchilarning nutq madaniyatini va fikrini ravon ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Faraz qilish (inferensiya) – bu mavjud ma'lumotlar asosida yangi xulosalar chiqarish, yetishmayotgan axborotni aniqlash va taxminlar ilgari surish qobiliyatidir. Bu jarayon o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini uyg'unlashtiradi. Tartibga solish (refleksiya va o'z-o'zini nazorat qilish) – bu o'z fikrini qayta ko'rib chiqish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish jarayonidir. Bu ko'nikma o'quvchilarda o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish va doimiy rivojlanish ehtiyojini shakllantiradi. Shuningdek, kritik fikrlash o'quvchilarda savol berish madaniyatini ham rivojlantiradi. Ular “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Agar boshqacha bo'lsa nima bo'ladi?” kabi savollar orqali voqea va hodisalarga chuqurroq yondashishni o'rganadilar. Bu esa ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mustaqil izlanishga undaydi.

Integrativ yondashuv – turli fanlar va bilim sohalari o'rtasida bog'liqlikni ta'minlash, o'quv jarayonini yagona tizim sifatida tashkil etish usuli hisoblanadi. Bu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarda keng qamrovli va tizimli fikrlashni rivojlantiradi.
- Olingan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishiga yordam beradi.
- Fanlararo bog'liqlikni mustahkamlab, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish o'quvchilarga axborotlarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va o'z nuqtai nazarini asoslash imkonini beradi.

Kritik fikrlash orqali o'quvchining berilgan ma'lumotni tahlil qilish, baholash, sabab-natijalarini tushunish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi. Kritik fikrlash jarayoni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Tahlil qilish – ma'lumotni bo'laklarga ajratish va uni chuqur tushunish.
2. Baholash – berilgan fikr yoki axborotning ishonchligini tekshirish.
3. Mantiqiy fikrlash – sabab va natijalarni o'zaro bog'lash.
4. Muammo yechish – muayyan muammolarni hal qilish uchun mustaqil fikr yuritish.
5. O'z fikrini asoslash – o'z nuqtai nazarini dalillar bilan isbotlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin:

- Fanlararo bog'liqlikni ta'minlash;
- Muammoli ta'lim metodidan foydalanish;
- Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish;
- Jamoaviy va individual ishlarni uyg'unlashtirish;
- Interfaol metodlardan foydalanish.

Kritik fikrlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli vaziyatlarda tahliliy fikrlay olishlari, mustaqil ravishda qaror qabul qila olishlari, axborotlashgan jamiyatda tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish mumkin. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich

sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Kritik fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun ularni turli fanlar va fanlar bo'yicha integratsiya qilish muhimdir. Ushbu fanlararo yondashuv o'quvchilarni muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga undaydi va ularning kritik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarga har qanday ma'lumotlar, voqea-hodisalarni aniqlik, to'g'rilik, mantiq bilan tekshirishga undashi kerak. O'quvchilarga nima uchun biror narsani qilish yoki qilmaslikni qaror qilishganini, bu qarordan nima sodir bo'lishini, mavjud boshqa muqobillarini doimiy ravishda so'rash, o'quvchilarning kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi 233-son qaroriga ILOVA
2. Выготский Л. С. Проблема культурного развития ребенка. М.: Лабиринт, 1999. 141 с.
3. Xodjjeva F.O. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari // Zamonaviy ta'lim/Sovremennoe obrazovanie. T.: 2017, №6. – 43-47-b.
4. B.R Adizov Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fan. dok. ... diss. – T.: 2003. – 280 b.
5. G.M.Tajiboyeva.Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi (Boshlang'ich sinflar misolida) ped. fan. bo'yicha fals. dok. diss. avtoref. (PhD). – Namangan, 2023. – 45 b.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.